TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARDAN FOYDALANISHNING IMKONIYATLARI

Turayeva Muborak Abduxamidovna - Jizzax davlat pedagogika universiteti
Xorijiy tillar fakulteti Ingliz tili amaliy kursi kafedrasi
E-mail: mturaeva10@mail.ru

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim jarayonida raqamli texnologiyalar, masofaviy ta'limlardan foydalanishning imkoniyatlari va afzalliklari haqida so'z yuritiladi. Raqamli texnologiyalardan samarali foydalanish va masofaviy ta'limning so'nggi imkoniyatlarini joriy etish lozimligi, masofaviy ta'lim tizimi orqali yangi ko'nikmalarni yoki fanga, mavzuga oid materiallarni tez va osonroq topish ekanligi atroflicha yoritib beriladi.

Kalit so'zlar: Internet tarmog'i, raqamli texnologiyalar, raqamli o'qitish ta'lim tizimi, masofaviy ta'lim, masofaviy platformalar, mobil ilovalar.

Hozirgi globallashuv kunda raqamli texnologiyalar shiddat bilan rivojlanib boryapti va har bir sohada zamon bilan hamnafas harakatda bo'lishni taqozo etmoqda. Axborot almashinuvi va foydalanish tezligi juda jadallashgan hozirgi davrda ta'lim tizimida raqamli texnologiyalardan unumli va to'g'ri foydalanish, ta'lim sifatini oshirish va ijtimoiy faol yoshlarni tarbiyalashda katta axamyatga ega.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Raqamli O'zbekiston—2030» strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida‖gi Farmonida raqamli texnologiyalar asosida mamlakatimizda raqamli iqtisodiyotni takomillashtirish vazifasi belgilangan. Raqamli texnologiyalarga bulutli texnologiyalar, katta ma'lumotlar, virtual reallik tizimlari kiradi. Dasturiy mahsulotlar va axborot texnologiyalarining mahalliy bozorini yanada rivojlantirish, elektron hukumat tizimini takomillashtirish, respublikaning barcha hududlarida IT-parklarni tashkil etish ustuvor loyihalarni amalga oshirish ishlari keng olib borildi.

Shunday ekan, hozirda ta'lim sifatini ko'tarishda ta'limni raqamlashtirish jarayoni boshlangan. Internet tizimidagi muhitning yoshlar ongiga ta'sirining ahamiyati ta'lim-tarbiya jarayonlarida, zamonaviy ommaviy axborot vositalarining ma'ruzalarida, pedagogik jamoatchilik muhokamalarida, magistrant va tadqiqotchilarning izlanishlarida ham ko'rishimiz mumkin.

Ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun bir qator ishlarni amalga oshirishga alohida e'tibor qaratish muhim ekanligini asoslaydi. Shunga ko'ra, ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini

saqlab qolgan holda ularni samarali qo'llash uchun quyidagilarni inobitga olish muhim ahamiyatga ega.

Shunday ekan, zamon bilan birga ketish uchun, avvalo o'quv jarayonini tashkil etishda raqamli texnologiyalardan unumli va oqilona foydalanish ko'lamini kengaytirish kerak. Ta'lim tizimida faoliyat yuritayotgan kadrlarni va yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'ngi yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda keng imkomiyatlar yaratib berishilishi lozim. Ikkinchidan, pedagog kadrlarning kasbiy mahoratini uzluksiz rivojlantirib borish uchun qo'shimcha qulay sharoitlar yaratish lozim. Uchinchidan, masofaviy ta'limning ham ahamiyatini oshirish kerak. Chunki, masofaviy ta'lim tizimi orqali yangi ko'nikmalarni yoki mavzuga oid materiallarni o'rganish tezroq, osonroq va arzonroq amalga oshirilishi bilan alohida ahamiyat kasb etmoqda. Ya'ni, real vaqt rejimida interfaol taqdimot tizimlari, videokonferens aloqa tizimlari, virtual zallar, elektron resurslardan foydalanib istalgan vaqtda masofaviy o'qitish jarayonini amalga oshirish lozim. Shu bilan birga, o'qituvchi-talabalar hamkorligida o'qitish shakllari, ta'lim texnologiyalari hamda metodlarini takomillashtirish va o'qituvchining kasbiy-pedagogik bilimi va kasbiy madaniyatini rivojlantirish.

Shundagina, biz raqamli texnologiyalardan foydalanib ta'lim sifatini tushirmagan holda talaba-yoshlarga bugungi kun talabi darajasida bilim olishlariga erishamiz.

Buning uchun, mamlakatimizda Internet infratuzilmasini yaxshilashimiz, mobil operatorlar tomonidan ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishimiz va eng muhimi aholining, ayniqsa talaba yoshlarni zamonaviy axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining so'ng yutuqlarini o'zlashtirishga shart-sharoitlar hamda imkoniyatlar yaratib berishimiz zarur ekanligi bilan belgilanadi.

Xulosa qilganda, ta'limda raqamli texnologiyalarni o'qitish sifatini saqlab qolgan holda samarali qo'llash uchun bir qator ishlarni amalga oshirish zarurligiga alohida e'tibor qaratish muhim ekanligini asoslaydi. Shunga ko'ra, ta'limda o'qitish sifatini saqlab qolgan holda raqamli texnologiyalarning imkoniyatlaridan oqilona va to'g'ri foydalanish lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shu.M. Mirziyoev ning 2020-yil 24 yanvarda Oliy Majlisga yoldaman Murojaatnomasi. 202 y.

2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-dekabrdagi "O'zbekiston Respublikasini rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947 –son Farmoni.

3. Orishev J.B. Bo'lajak texnologik ta'lim o'qituvchilarini tayyorlashda axborot texnologiyalarining o'rni // Tafakkur ziyosi. Ilmiy metodik jurnal. 2020.№2, B.216-218